

TALABALARDA EKOLOGIK XAVFSIZLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING BA'ZI JIHATLARI

Davlatova Sayyora Toshpo'latovna

*Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion
rivojlanish instituti o'qituvchisi*

Email:davlatovasayyor@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada talabalarda ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirishning o'quv fanlarini integratsiyalash jarayonida faol aqliy faoliyatga yordam beruvchi metodlarni tanlash mantiqan ketma-ket, izchil, ilmiy bayon qilingan.

Kalit so'zlar. o'qituvchi, talaba, fan, integratsiya, halokat, muammo, vaziyat, tabiat, jamiyat, kompetensiyametod, holat, faol, munosabat.

ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ У СТУДЕНТОВ НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ

Давлатова Сайёра Тошпулатовна,
Преподаватель института Термезские
агротехнологии и инновационные развития
Email:davlatovasayyor@gmail.com

Аннотация. В статье логически, последовательно и научно описан выбор методов, поддерживающих активную умственную деятельность в процессе интеграции учебных предметов формирования культуры экологической безопасности у студентов.

Ключевые слова. учитель, студент, наука, интеграция, катастрофа, проблема, ситуация, природа, общество, компетентность, метод, ситуация, активный, отношение.

ENVIRONMENTAL SAFETY IN STUDENTS SOME ASPECTS OF CULTURE DEVELOPMENT

Teacher of the Institute of Termez

agrotechnology and innovative development

Email: davlatovasayyor@gmail.com

Annotation. In the article, the selection of methods that help active mental activity in the process of integrating the educational subjects of the formation of environmental safety culture among students is logically, consistently, and scientifically described.

Keywords: teacher, student, science, integration, disaster, problem, situation, nature, society, competence, method, situation, active, attitude.

Kirish. Ma'lumki, yakunlangan XX asr fan va texnika yutuqlari asri bo'ldi. Hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyot yutuqlaridan foydalanish bilan bir qatorda noqulay ekologik vaziyat qamrovi jihatdan ahamiyatga molik ekologik xavfni keltirmoqda [1]. Umumbashariy ahamiyatga molik ekologik xavfni yuzaga keltiradi. Ekologik xavfning kelib chiqishi sabablari tabiat, jamiyat, insonlar va texnika orasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish hamda ekologik xavfga yo'l qo'ymaslik bugungi kunning asosiy muammosi bo'lib qoldi [2]. Mazkur noqulay tabiiy ekologik vaziyat inson uchun muhim ta'sir qilmoqda. Shu munosabat bilan umumbashariy va mintaqaviy ekologik xavf, uning kelib chiqish sabablari, inson va tabiat, jamiyat va tabiat orasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish, ekologik halokatga yo'l qo'ymaslik hozirgi kunning dolzarb muammosi hisoblanadi [3].

Tadqiqotning metodologiyasi. Talabalarga ekologik ta'lim-tarbiya berishda o'rganilayotgan materiallar bevosita tabiat bilan tanishish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiat xilma-xil ko'rinishlari bilan insonni qurshab turgan moddiy olamdan tuzilgan. Talabalarga ekologik ta'lim-tarbiyaning fanlararo tushuntirishdan maqsad-tabiatni bilish va uni asrashga o'rgatish, ekologik ta'lim-tarbiyaga oid fanlararo nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Talabalarda ekologik ta'lim-tarbiyaga oid tushunchalarni tabiiy fanlararo shakllantirish tahlili ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida o'quv fanlarini integratsiyalashning faol aqliy faoliyatga yordam beruvchi omillar – integratsiyalash uchun fanlarning ma'qul birlashishi, o'qituvchi va talaba harakatlarini hisobga olgan holda, metodlarni tanlashni lozimligini angladik.

Oliy o'quv muassasalarida o'qitiladigan barcha fanlardan integratsiyalashning ma'lum bir imkoniyatlari mavjud bo'lib, uni integratsiyalashgan holda tashkil etish bir qator shartlarga bog'liq. Shuning uchun pedagog va metodistlar yangi dasturini yaratishdan avval shu holatlarning barchasini e'tiborga olishlari lozim. O'quv faoliyatdagi qiyinchiliklarning sabablaridan biri integratsiyalashdan atroflicha foydalanmaslik [4].

Talabaning bir fanni muvofaqiyatli o'zlashtirishining sababi, boshqa bir fanidan yaxshi bilimga ega bo'lishlari bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Misol uchun katta hajmdagi matni savodli ko'chirib olish uchun uni tez va to'g'ri o'qiy olish malakasi talab qilinadi. Agar bunday imkoniyat haqida gapirmasdan turib, o'qituvchi o'rgatadigan xar bir fanni boshqasi bilan solishtirmasdan, taqqoslamasdan, uning ma'umotlaridan foydalanmasdan o'rgatish ancha qiyin va zararli bo'lishi mumkinligini xis qilish zarur. Jumladan, integratsiyalashgan darslarini tashkil qilish orqali talabalar bilan munozara qilish, sinflararo musobaqalarni tashkil etish, savol-javoblarni. Bunday zamonaviy dars turlarini qo'llashdan asosiy maqsad o'quv jarayonida o'quvchilarni faollashtirish, o'quv materialini o'zlashtirishning yuqori darajasiga erishishdan iborat. Ana shunday texnologiya talabani dunyoni o'zgacha tasavvur qilishga o'rgatadi, amaliyotni hayot bilan bog'lashga, nazariy qoidalarni so'zma-so'z yodlamaslikka, shaxs va jamiyat uyg'unligini anglashning yuzaga kelishi ularning integratsiyalashishiga yorqin dalil bo'ladi.

Fanlararo aloqadorlik prinsipi turdosh o'quv fanlararo munosabatlarning murakkab jihatlarini to'liq o'zlashtirishni ta'minlab, bilimlarning ichki mohiyatiga kirib borishni ta'minlaydi [5]. Natijada, turli tizimlar ichki aloqadorlik, integrativ yaxlitlik vujudga keladi. Jumladan, gumanitar fanlar o'rtasidagi aloqadorlik, o'zaro bog'liqlikni ta'minlash, talabalarga ekalogik bilimlarning muayyan tansifga muvofiq

berish ularda tabiatni bilishga bo'lgan qiziqishni shakllantirish omili sifatida ko'zga tashlanadi.

Tadqiqotning tahlili va natijalari. Dars jarayonida ekologik tushunchalardan foydalanish talabalarda ekologiya oid bilimlarni o'rganishga qiziqishni yuzaga keltiradi. Shuningdek, ularni o'qitishda fanlararo bog'lanish amalga oshirish tabiat va jamiyatdagi borlik, ularda boradigan hodisa va jarayonlar o'zgarishlarining mazmun-mohiyati anglash, mazkur o'quv fanlari mazmunidagi umumiy va hususiy tushunchalarni yaxlit tasavvur qilish amaliyotga qo'llash ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni tarkib toptirish orqali o'quvchida ekologik tushunchalarni shakllantirish jarayonini vujudga keltirishda muhim ahamiyatga kasb etadi.

Oliy o'quv muassasalarida talabalarga ekologiyani o'qitishda fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yishga asos bo'ladigan tushunchalar quyidagi guruhlariga ajratilgan

1. Tabiat va jamiyatning o'zaro bog'liqligi asosida yuz beradigan hodisalarning umumiyliigi yaxlitlash uzluksizligi va uzviyligi.

2. Bo'ladigan hayotiy jarayonlar va o'zgaruvchanliklarni tushunishda, muommoli o'quv topshiriqlarni hal etishda tabiat va jamiyat qonunlari foydalanish orqali fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish.

3. Moddiy borliqdagi hodisa va voqealarni o'rganishning zaruriyati, ekologik fojealarning sabablari va ularni bartaraf etish tadbirlari.

4. Inson tomonidan tabiat – jamiyat qonunlarini o'rganish va undan samarali va oqilona foydalanish yo'llari.

Fanlararo bog'lanish talabaning fikrlash qobiliyatini rivojlantiridi, mustaqilligini oshiradi. Shuningdek, uning fanlarga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish bilan birga mehnat, ko'nikma malaka va kompetensiyalarini shakllantiradi va ekologik madaniyatini tarbiyalashga katta yordam beradi.

Tabiat va jamiyat bilan bevosita, faol muloqotda bo'lish Oliy o'quv muassasalari talabalari tomonidan tashkil etilayotgan aqliy faoliyat jarayonini jadallashtiradi. Bu holat talabalarning fikrlash tarziga ta'sir o'tkazib, ularda tabiatni bilishga bo'lgan qiziqishini hosil qiladi hamda aqliy qobiliyatlarini takomillashtiradi.

Shuningdek, bugungi kunda talabalarda tabiatga nisbatan insonparvarlarcha munosabatni rivojlantirish masalasi ko'ndalang turgan ekan, pedagog kadrlar o'z mehnat faoliyati davomida talabalarda tabiat va jamiyat qonunlari, inson va tabiat, ularning o'zaro mutanosibligi, tabiiy muvozanatni saqlash haqidagi bilimlarni va bular negizida ekologik mavzulardagi ta'lim – tarbiyaviy ishlarni puxta rejalashtirishlari va amalga oshirishlari lozim bo'ladi.

Xususan, hozirgi ekologik muammolar keskinlashib borayotgan sharoitda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiat boyliklarini kelajak avlodga qoldirish, ulardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish, bu maqsadda qonunchilikni takomillashtirib borish, ekologik-huquqiy ta'lim – tarbiyani oilada yanada kuchaytirish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. Bu esa, mamlakatimizdagi mavjud tabiiy boyliklarni kelajak avlod uchun bir-butun qoldirishga ularni asrab-avaylashga, e'zozlashga hamda ulardan oqilona foydalanish va muhofaza qilishga xizmat qiladi.

O'quv jarayonida aloqadorlikni ta'minlash qo'yidagilardan iborat:

- jonli, jonsiz tabiatning o'zaro aloqadorligi va farqi;
- tabiat jismlarmi va ularning badiiy xususiyatlari;
- tabiatning ekologik komponentlari va ularning o'zaro aloqadorligi;
- tabiat hodisalari va ularning badiiy ta'siri;
- O'zbekiston tabiati va uni ekologik jihatdan muxofaza qilish;
- atrofimizdagi tabiatga oqilona munosabatlarni shakllantirish.

Tabiat va jamiyat taraqqiyot qonuniyatlari to'g'risida ekologiyaga oid bilimlarni o'zlashtirishda talabalarda fanlar integratsiyasi asosida dastlabki, ekologik tushunchalar olib borish maqsadga muvofiq. Oliy o'quv muassasalarining talabalarida fanlar integratsiyasi asosida ekologik tushunchalarni shakllanishiga imkoniyat yaratadi.

Tabiiy fanlar dasturini mazmunan maqsadga muvofiq tahlil qilish, ularni fanlararo ekologik tarbiyaning uzluksiz va uzviylikda bog'lanishni aniqlash, ularni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash talabaning bilish faoliyatini faollashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiy fanlarni o'qitishda ularni integratsiyalash, ya'ni fanlararo

gorizontl-vertikal bog‘lanishni amalga oshirish ta’lim-tarbiya jarayonining muhim didaktik shartli bo‘lib, u qo‘yidagi vazifalarni bajaradi:

1. Talabalarni uchun asosiy bilim manbai bo‘lgan o‘quv materailining ilmiyligi va zichligi, boshqa tabiiy fanlardan o‘zlashtirilgan tushunchalarning didaktik bog‘liqligini ta’minlaydi.
2. Talaba tomomnidan bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqish ortadi va aqliy rivojlanish tezlashadi.
3. Tabiiy fanlarni integratsiyalash, ya’ni o‘qitishda fanlararo gorizont va vertikal-bosqich amalga oshirish orqali talabalarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirishga imkon yaratadi.
4. Tabiiy fanlar o‘rtasida o‘zaro ta’sir v fanlar tarkibidagi o‘ziga xos qonuniyatlarning jihatlari faqatgina muayyan o‘quv fanlari mazmunida turli bilim va tushunchalarni ifodalash bilan cheklanib qolmaydi. O‘qitishda fanlararo aloqadorlikni ta’minlashga oid pedagogik tadqiqot ishlarida uni mustaqil tadqiqot yo‘nalishi sifatida mujassam rivojlanayotgan shaxsga nisbatan pedagogik ta’sir ko‘rsatish imkoniyati sifatida qarash talab etiladi.

Talabalarinng ijodkorligi shundaki, ular fan uchun ma’lum, ammo talaba bilmaydigan tomonlarni, eng avvalo o‘zi loyihalaydi va talabalarni ham shunga undaydi. Modomki shunday ekan, talabalarda ekologik tafakkurni ustirish uchun modul darslarini tashkil qilish orqali integratsiyani amalga oshirish samarali usul hisoblanadi.

Bugungi kunda umumkasbiy fanlarni birlashtirishga nisbattan yangi yondashuv bosqich boshlanadi. Fanlararo bog‘liqlik dasturli bir-biriga yaqin bo‘lgan fanlarni yaqinlashtirish, integratsilash muammosiga murojaat qilmoqda.

Mazkur vazifalarni etish uchun o‘quv jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta’minlashni ilmiy jihatdan asoslash maqsadida har bir o‘quv fanining fanlararo aloqadorlikdagi mazmunini tanlash, ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda o‘quv fanlarining bir-biri bilan bog‘langan tizimini shakllantirish lozim.

Integrativ ta'lim oddiydan murakkabgacha, bilishdan-ilmgacha, tartibsizlikdan uyg'unlikka, chanqoqlikdan mohirlikka va ijodga bo'lgan harakatni taklif qiladi. So'zlarni, sonlar sirini, yashil belgilar qadimiy afsonalar sirlarini ochishga intiladi.

Xulosa. Darhaqiqat, bugungi kun ta'lim tizimida talabalarda fanlararo aloqadorlikka oid bilimlarni axborot texnologiyalarini tatbiq etish orqali amalga oshirilmoqda. Bu esa Vatanimiz kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir va jismoniy, ma'naviy sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalash uchun zarur bo'lgan barcha sharoitlarni yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini tug'diradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmoni. PF-4947-son 07.02.2017. (lex.uz)

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6108-son farmoni. PF-6108-son 06.11.2020. (lex.uz).

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-76-son qarori. PQ-76-son 30.12.2021. (lex.uz)

4.Киселев С. А. Педагогические аспекты экологической безопасности образовательной среды / С. А. Киселев. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2015. — № 7 (87). — С. 777-780. — URL: <https://moluch.ru/archive/87/16605/> (дата обращения: 28.09.2021).

5.Rafiqov A.A., Q.N.Abirqulov, A.N.Hojimatov «Ekologiya» - O'quv qo'llanma. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgarmasi nashriyoti. - T.: 2004. - 144 b.